III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 9 842,2 mlrd so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 9 619,7 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 91,5 mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 131,0 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (2 558,0 mlrd so‘m), Qiziltepa (2 179,8 mlrd so‘m), Karmana (1 276,0 mlrd so‘m), Navbahor (1 269,3 mlrd so‘m), Nurota (1 055,4 mlrd so‘m), Konimex (735,7 mlrd so‘m), Tomdi (391,1 mlrd so‘m) va Uchquduq (225,9 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G‘ozg‘on shahri (57,9 mlrd so‘m), Zarafshon shahri (46,7 mlrd so‘m), va Navoiy shahrini (46,2 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

	Hajm mlrd so‘m	O‘sish sur’ati %
Navoiy viloyati	**9 842,2**	**104,4**
Navoiy shahri	46,2	100,5
Zarafshon shahri	46,7	105,4
G‘ozg‘on shahri	57,9	105,5
tumanlari		
Konimex tumani	735,7	104,8
Qiziltepa tumani	2 179,8	107,7
Navbahor tumani	1 269,3	103,5
Karmana tumani	1 276,0	106,4
Nurota tumani	1 055,4	105,0
Tomdi tumani	391,1	103,3
Uchquduq tumani	225,9	105,8
Xatirchi tumani	2 558,0	101,0

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sish sur’atlari Qiziltepa (107,7 %), Karmana (106,4 %), Uchquduq (105,8 %), tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Nurota (105,0 %), Konimex (104,8 %), Navbahor (103,5 %), Tomdi (103,3 %), Xatirchi (101,0 %) va Navoiy shahrida (100,5 %) o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 9 435,2 mlrd so‘mni yoki 2025-yilga nisbatan 103,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 2 448,6 mlrd so‘mni (107,0 %), chorvachilik mahsulotlari 6 986,6 mlrd so‘mni (102,0 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (2 501,7 mlrd so‘m), Qiziltepa (2 079,9 mlrd so‘m), Navbahor (1 202,7 mlrd so‘m) va Karmana (1 216,0 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahri (34,5 mlrd so‘m), Zarafshon shahri (45,0 mlrd so‘m) va G‘ozg‘on shahrini (55,8 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Karmana (106,5 %), Qiziltepa (105,9%), G‘ozg‘on shahri (105,2 %), Nurota (104,1 %), tumanlarida qayd etildi. Uchquduq (103,9 %), Konimex (103,6 %), Navoiy shahar (102,7 %), Tomdi (102,2 %), Zarafshon shahri (101,6 %) va Xatirchi (100,6 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 26,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 11,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi 2 448,6 mlrd so‘mni yoki 2025-yilga nisbatan 107,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (673,2 mlrd so‘m), Qiziltepa (619,3 mlrd so‘m), Navbahor (407,0 mlrd so‘m), Karmana (374,0 mlrd so‘m), Nurota (239,1 mlrd so‘m), va Konimex (115,6 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahri (13,0 mlrd so‘m), G‘ozg‘on shahri (5,1 mlrd so‘m) va Zarafshon shaharini (2,3 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Qiziltepa (119,1 %), Nurota (110,0 %), Zarafshon shahri (107,9 %), Konimex (107,3 %), Navoiy shahrida (106,4 %), qayd etildi. Karmana (106,3 %), G‘ozg‘on shahri (104,0 %) Xatirchi (99,6 %), tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 235,4 ming tonna donli ekinlar (2025-yilga nisbatan 9,7 % ga ko‘p), 30,1 ming tonna kartoshka (19,7 % ga ko‘p), 67,6 ming tonna sabzavotlar (13,5 % ga ko‘p), 13,0 ming tonna poliz ekinlari (17,2 % ga ko‘p), 82,1 ming tonna meva va rezavorlar (0,3 % ga ko‘p), 4,9 ming tonna uzum (5,8 % ga ko‘p) yetishtirildi.

Etishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-iyun 2026-y.	O‘sish sur’ati % da
Donli ekinlar, ming tonna.	**235,4**	**109,7**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	203,9	107,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	14,2	139,9
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,3	112,9
Kartoshka, ming tonna.	**30,1**	**119,7**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	8,1	111,1
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	21,8	131,7
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	16,7
Sabzavotlar, ming tonna.	**67,6**	**113,5**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	7,5	128,1
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	49,1	105,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,0	152,9
Poliz ekinlari, ming tonna.	**12,9**	**117,2**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	3,3	151,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	9,6	109,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
Meva va rezavorlar, ming tonna.	**82,1**	**100,3**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	15,2	114,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	65,7	97,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,2	120,3
Uzum, ming tonna.	**4,9**	**105,8**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	2,8	113,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	2,1	97,0
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **86,6 %** i fermer xo‘jaliklari hissasiga, **7,4 %** i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga, **6,0 %** i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	Donli ekinlar	***Kartoshka***	***Sabzavotlar***
Navoiy viloyati	**235 394**	**30 073**	**67 588**
Navoiy shahri	-	-	1 982
Zarafshon shahri	-	2	397
G‘ozg‘on shahri	-	-	415
tumanlari			
Konimex tumani	14 223	589	2 690
Qiziltepa tumani	75 663	3 735	3 688
Navbahor tumani	42 807	2 492	7 433
Karmana tumani	32 052	11 002	14 114
Nurota tumani	2 489	2 127	27 943
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	68 160	10 126	8 926

Shunga mos ravishda kartoshkaning **26,9 %**i fermer xo‘jaliklariga, **72,4 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **0,7 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning **11,1 %**i fermer xo‘jaliklariga, **72,7 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **16,2 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, poliz ekinlarining **25,6 %**i fermer xo‘jaliklariga, **74,1 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **0,3 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, meva va rezavorlarning **18,5 %**i fermer xo‘jaliklariga, **80,0 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **1,5 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, uzumning **57,2 %**i fermer xo‘jaliklariga, **42,5 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **0,3 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	Poliz ekinlari	*Meva va rezavorlar*	*Uzum*
Navoiy viloyati	**12 954**	**82 054**	**4 858**
Navoiy shahri	59	314	-
Zarafshon shahri	-	26	-
G‘ozg‘on shahri	-	357	-
tumanlari			
Konimex tumani	821	4 367	972
Qiziltepa tumani	610	10 942	435
Navbahor tumani	3 189	17 963	317
Karmana tumani	1 693	12 347	565
Nurota tumani	1 009	8 840	41
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	5 573	26 898	2 528

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi 6 986,6 mlrd so‘mni yoki 2025-yilga nisbatan 102,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (1 828,5 mlrd so‘m), Qiziltepa (1 460,6 mlrd so‘m), Karmana (841,9 mlrd so‘m), Navbahor (795,7 mlrd so‘m), Nurota (772,6 mlrd so‘m) va Konimex (572,3 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G‘ozg‘on shahri (50,7 mlrd so‘m), Zarafshon shahri (42,8 mlrd so‘m) va Navoiy shahrini (21,5 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Karmana (106,6 %), G‘ozg‘on shahri (105,3 %), Uchquduq (103,9 %), Konimex (102,6 %), Navbahor (102,3 %), Tomdi (102,2 %) tumanlarida qayd etildi. Nurota (101,9 %), Zarafshon shahri (101,2 %), Xatirchi (101,0 %), Qizilteta (99,8 %), Navoiy shahri (99,7 %), esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 72,9 ming tonna go‘sht, 170,4 ming tonna sut, 227,8 mln dona tuxum, 134,1 ming dona qorako‘l teri yetishtirildi va 5,2 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go‘sht hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, sog‘ib olingan sut – 101,1 % ni, olingan tuxum – 112,5 % ni, olingan qorako‘l teri – 94,1 % ni hamda ovlangan baliqlar – 142,8 % ni tashkil qildi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-iyun 2026-y.	O‘sish sur’ati % da
Go‘sht (tirik vaznda)***, ming tonna.***	**72,9**	**102,7**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	9,5	103,4
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	54,1	100,8
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,3	115,0
Sut, ming tonna.	**170,4**	**101,1**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	22,9	114,3
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	140,5	99,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,0	93,9
Tuxum, mln. dona.	**227,8**	**112,5**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	28,9	120,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	127,4	100,7
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	71,5	137,2
Qorako‘l teri, ming dona.	**134,1**	**94,1**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	48,0	105,4
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	48,5	99,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	37,6	78,0
Baliq, ming tonna	**5,2**	**142,8**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	2,7	2,2 m.
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	-	-
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,5	104,8

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go‘shtning umumiy hajmidan 13,1 %i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 74,1 %i dehqon va tomorqa 12,8 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

Shunga mos ravishda sog‘ib olingan sutning 13,4 %i fermer xo‘jaliklari, 82,5 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 4,1 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 12,7 %i fermer xo‘jaliklariga, 55,9 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 31,4 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako‘l terining 35,8 %i fermer xo‘jaliklariga, 36,2 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 28,0 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning 52,0 %i fermer xo‘jaliklariga, 0,6%i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 47,4%i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar (tonna)

	Go‘sht *(tirik vaznda)*	***Sut***	***Tuxum,*** *ming dona*	***Baliq***
Navoiy viloyati	72 932	170 390	227 813	5 224,4
Navoiy shahri	209	732	1 723	-
Zarafshon shahri	544	448	1 834	-
G‘ozg‘on shahri	653	593	726	-
tumanlari				
Konimex tumani	7 261	6 243	5 418	365,2
Qiziltepa tumani	11 629	42 138	58 688	2 294,2
Navbahor tumani	7 464	27 872	29 803	1 022,0
Karmana tumani	8 987	19 462	57 226	902,5
Nurota tumani	9 453	11 868	8 243	45,2
Tomdi tumani	5 206	1 523	680	-
Uchquduq tumani	2 820	2 531	497	-
Xatirchi tumani	18 708	56 980	62 975	595,3

Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 376,5 ming boshga yetdi, (2025-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 0,6 % ga ko‘p), sigirlar 141,8 ming boshga (0,7 % ga ko‘p), qo‘y va echkilar 2 308,9 ming boshga (96,2 %), parrandalar 3 669,9 ming boshga (0,9 % ga ko‘p) yetdi.

2026-yilning 1-iyul holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O‘sish sur’ati
Yirik shoxli qoramollar	**376,5**	**100,6**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	54,5	103,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	304,6	101,0
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,4	86,6
shundan sigirlar	**141,8**	**100,7**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	19,7	107,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	116,8	100,1
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,3	92,7
Qo‘y va echkilar	**2 308,9**	**96,2**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	752,9	102,1
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 088,2	100,2
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	467,8	81,2
Otlar	**19 357**	**101,0**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	10 824	104,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	6 181	101,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 352	85,4
Parrandalar	**3 669,9**	**100,9**
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	553,5	110,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 582,6	100,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 533,8	98,0

2026-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 14,5 %i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 80,9 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 4,6 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 13,9 %i fermer xo‘jaliklariga, 82,3 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,8 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, shuningdek, qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 32,6 %i fermer xo‘jaliklariga, 47,1 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 20,3 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 15,1 %i fermer xo‘jaliklariga, 43,1 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 41,8 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

2026-yilning 1-iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo‘y va echkilar	Parrandalar
Navoiy viloyati	**376,5**	**141,8**	**2 308,9**	**3 669,9**
Navoiy shahri	1,7	0,4	7,7	66,7
Zarafshon shahri	0,9	0,2	10,6	26,9
G‘ozg‘on shahri	1,4	0,5	36,4	7,9
tumanlari				
Konimex tumani	17,6	7,5	538,9	184,3
Qiziltepa tumani	109,5	39,2	252,6	905,0
Navbahor tumani	54,6	19,8	228,7	336,7
Karmana tumani	40,1	12,6	118,3	930,7
Nurota tumani	29,0	11,6	387,3	120,5
Tomdi tumani	5,5	2,0	371,8	54,0
Uchquduq tumani	5,2	2,1	126,2	15,3
Xatirchi tumani	111,0	45,9	230,4	1 022,0

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi.

O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Tomorqa xo‘jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

Qorako‘l teri yetishtirish – uch kunligida so‘yilgan qorako‘l zotli qo‘zilarning terilarini o‘z ichiga oladi, bunda asosiy mahsulot qorako‘l teri hisoblanadi, olingan go‘sht esa so‘yish uchun yetishtirish hajmiga qo‘shilmaydi;

Asal yetishtirish – asalarilar tomonidan yig‘ilgan, ham uyalardan chiqarib olingan, ham asalarilarga qishki-bahorgi davrlarda ozuqa uchun qoldirilgan asal miqdorini o‘z ichiga oladi;

Baliqchilik mahsuloti – ovlangan baliq mahsulotlari miqdori bilan aniqlanadi.